

KIMYO DARSINI TASHKIL ETISHDA O'QUV MATERIALLARI HAMDA USULLARINING AHAMIYATI

Jo'rayev Shuxrat Sherbuta o'g'li

*Toshkent farmatsevtika instituti qoshidagi akademik litseyi
Kimyo fani katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada kimyo va biologiya darslarini tashkil etishda o'quv materiallaridan unumli foydalanish hamda innovatsion usullarining ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, strategiya, yosh avlod, kimyo-biologiya, zamonaviy ta'lim, o'quv materiallari, usullar...

Respublikamizda yoshlarning aqliy va ma'naviy salohiyatini oshirishda ta'lim va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligini e'tiborga olgan holda hozirgi vaqtda o'rta ta'lim muassasalari va akademik litseylarda kelajakda jamiyatimizga yetuk, raqobatbardosh malakali o'quvchilarni tayyorlab berishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu maqsadni amalga oshirish uchun esa o'quvchilardan o'quv fanlarini mukammal o'zlashtirishi talab etiladi. Shu ma'noda aytib o'tish joizki, o'quvchilarga nazariy olingan bilimlarni amalda qo'llay olish ko'nikmasi to'liq shakllangan bo'lishi, ya'ni o'zlashtirgan bilimlari asosida mazkur fanning asl mazmun va mohiyatini mukammal anglab etgan bo'lishlari lozim. Hozirgi kunda ta'lim muassalarida yangi texnologiyalardan foydalanish zamon talabidir, ammo ayni damda barcha ta'lim muassasalarida birdek imkoniyat yaratilmagan. Jumladan, kimyo darslarini tashkil etishda ham o'quv materiallari va usullarining ahamiyati juda katta. Ba'zi ta'lim muassasalari kompyuter jihozlari bilan ta'minlanmagan bo'lsa, ba'zilari internet tarmoqlariga ulanmaganligi strategik maqsadlarni amalga oshirishni sekinlashtiradi.


Bugungi kunda kimyo fanining strategik maqsadlari quyidagilar:



Bu borada yurtimizda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning tegishli farmonlari asosida barcha xududlarda birdek imkoniyat yaratilishi taminlanmoqda. Bu albatta quvonarli hol. Ta'lim bor joyda o'sish ham bo'ladi. Aytilganidek eng yaxshi investitsiya ta'lim olishingiz uchun kiritilgan investitsiyadir. Kimyo darslarida ta'limni tashkil etishning bir necha shakllari, dars turlaridan foydalanish mumkin bo'lib, ularning har biri o'z xususiyatlariga ega. Ulardan o'qituvchi maqsadli foydalanishi zarur bo'ladi. Darslarni tashkil etishda pedagogik hamkorlikning turi bo'shlang'ich siniflarda alohida ahamiyatga ega bo'lib, uning o'z maqsadi va vazifalari bor. Boshqa dars turlari singari umumlashturuvchi darslarga ham bir qator talablar qo'yiladi. Kimyo va biologiya darslarini ta'skil etishda pedagogik hamkorlikning mazmuni, o'quvchilarning tayorlanishlari uchun vaqt berilishi, oldingi materiallar yuzasidan savollar berib qo'yilishi, foydalanish lozim bo'lgan adabiyotlarning ro'yxati berilgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi shuni alohida hisobga olishi kerakki, darslarni tashkil etishda pedagogik hamkorlikning turida o'quv materiallarining chegaralari aniq belgilab olinadi, asosan g'oya tushuncha, qoida unga mos mashq topshiriqlar ajratib olinadi. Dars samaradorligini amalga oshirishda o'quv materiallarini qaytarish jarayonida nafaqat ta'limiy balki, tarbiyaviy jihatdan ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Quyidagi usullar hamda dars turlari kimyo va biologiya darslari samaradorligini oshirishda asosiy material bo'la oladi.

"Auksion dars" usuli. Bunda o'quvchilar faolligi va darsga qiziqishi oshiriladi. Bu usul quyidagicha tashkil etiladi. Ushbu usulni kimyo darslarida ham biologiya darslarida ham birdek qo'llash mumkin.



"Ko'rgazmalilik" usuli. Bu usulni shunday olib borish kerakki kimyo darsida bajarilayotgan tajribalarni o'quvchilar hammasi ko'ra olsun. Ko'rgazmalilikdan kadoskop va boshqa TCO dan unumli foydalanish lozim. O'quvchilarga ko'rsatiladigan tajribalar oddiy, xavfsiz, ishonchli tarzda bo'lishi shart. O'tkazilayotgan eksperiment tafsilotlarini albatta izohlab borish lozim.

Tajribalar o'tkazilayotganda quyidagi metodlarga amal qilish tavsiya etiladi:

1. Tajribaning maqsadini qo'ya bilish: o'quvchilar nima sababdan tajriba o'tkazilishini tushinishi kerak.

2. Tajribalar o'tkazilayotgan priborlarning chizmalarini chizish; sharoitni belgilash, (reaksiya qanday sharoit va muhitda olib boriladi.)

3. O'quvchilarning kuzata bilishini tashkil etish. (Nima bo'layapti-yu, natija nima bo'ladi anglab yetish)

"Monologik" metod- so'zlab berish, ma'ruzalarga, bo'linib, o'quv materiali mazmunini o'qituvchining o'zi tushintiradi. Bu metodda kimyo va biologiya darslarida o'quvchilar faktlar, eksperiment orqali kuzatib o'rganadilar: fandagi ma'lum bilimlar atrof muhit himoyasi, element va moddalarning sodir bo'lishi tarzida ko'rgazmali holda ifodalanadi.

"Tushuntirish" metodi. Ushbu metod kimyo darslarida qo'llanganda o'quvchilarga nazariy bilimlar mohiyati ochib beriladi. Moddalar massasining saqlanish qonuni atom - molekulyar nuqtai-nazaridan tushuntirilganda yoki elementlar xossalari davriy ravishda takrorlanish kabi holatlar tushuntirilganda tushunchalar ketma - ket ochilib umumlashtiriladi.

Bugungi kunda har bir fan kabi kimyo fanini o'qitish ham o'quvchilarning ichki motivatsion sohasini, o'quv faoliyati, kognitiv faolligi va mustaqilligini rivojlantirishni ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan maktab kimyo ta'limida pedagogik texnologiyalarni izlashga bag'ishlanishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, kimyo fanini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarga dars jarayonini yaxshi tashkil etishga qulay muhit yaratadi. O'quvchilarning o'zaro fikr almashishlariga imkon beriladi. O'zaro axborot olish va berish uchun sharoit tug'diriladi. Yechimini kutayotgan masalalami hamjihatlikda muhokama etadilar, yechadilar. Vaziyatdan chiqishda hamkorlikda yechim topadilar. Olgan axborotlari asosida bilimlarini bir - birlariga namoyish etadilar. Bir - birlaridan ilhomlanib, ruhiy qoniqish hosil qiladilar. Bir - birlarini tushunib, balki qiziqish paydo bo'lib, vaqt o'tganini bilamay qoladilar. Ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirishga erishadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Almetov N.SH. Pedagogika. 2002-yil.

2. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni bilimini oshirishning asosiy omillari. Anjuman materiyallari. T., 2015-yil.

3. Atqiyayeva, I. S., Kurbanova A.Dj., Komilov, Q. O., Fayziyev, X. Kimyoni o'qitishda o'quvchilarning intellectual imkoniyatlarini rivojlantirishda elektron taqdimotlarning qo'llanilishi. 2021-yil.

4. Internet manzillari va metodik qo'llanmalar.